MIGRATSIYANI IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDAGI AHAMIYATI

Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Globallashuv jarayonining rivojlanishi, barcha mamlakatlarning mavjudlik ehtiyojini paydo qilishi bilan birga, mamlakatlarni ham barcha sohalarda bir-biriga yaqinlashtirmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yaqin qo‘shnichilik va iqtisodiy hamkorlik sohasidagi islohotlar boshqa mamlakatlar bilan migratsion jarayonlarni yanada tartibga solinishiga ham asos bo‘lmoqda.

Kalit so‘zlar: Migratsiya, donor davlat, vatanga qaytish, erkinlik manbasi, ishchi kuchi eksporti, intellekt eksporti.

Globallashuv jarayonining rivojlanishi, barcha mamlakatlarning mavjudlik ehtiyojini paydo qilishi bilan birga, mamlakatlarni ham barcha sohalarda bir-biriga yaqinlashtirmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yaqin qo‘shnichilik va iqtisodiy hamkorlik sohasidagi islohotlar boshqa mamlakatlar bilan migratsion jarayonlarni yanada tartibga solinishiga ham asos bo‘lmoqda.

Migratsiyaning yuzaga keltiruvchi asosiy turlaridan hisoblanuvchi mehnat migratsiyasi sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan mustaqil davlatlarda ayniqsa, 2000 yillardan keyin birmuncha o‘sganligini ko‘rish mumkin. Bu birmuncha iqtisodi kuchsiz davlatlarning, donor hisoblanuvchi Rossiya tomon yo‘nalganligidan ham ko‘rish mumkin. 2023-yilning birinchi yarmida atrofdagi davlatlar fuqarolarining Rossiya fuqaroligini qabul qilgani haqida infografikani ham ko‘radigan bo‘lsak, unda Tojikistonning 87 mingga yaqin fuqarosi g‘arbga tomon harakatlanganligi ko‘zga tashlanadi. Aksariyat xorij davlatlarida tashqi ishchi kuchidan foydalanishga asosiy sabab iqtisodiyotning ba’zi sektorlari va mintaqalarda ayrim kasb hamda ish turlari bo‘yicha ishchi kuchining yetishmasligidadir. Mazkur ishchi kuchlaridan, avvalambor, mehnatga kam haq to‘lanadigan, muayyan malaka talab etmaydigan va ish joylarida foydalaniladi.

Davlatlarning mehnat migratsiyasiga doir yuritayotgan hozirgi siyosati, birinchi galda, mamlakat ichida ishsizlikka qarshi kurashishga qaratilgan. Negaki, iqtisodiyotda ichki migratsiya degan tushuncha ham mavjud. Shu sababli mamlakatlar, avvalo, o‘z fuqarolarini ish bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratadi. Masalan, Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra,

2022-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahridan respublikaning boshqa hududiga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni 4813 kishini tashkil etgan.

Toshkent shahridan ko‘chib ketish o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 80 kishiga (1,6 foizga) kamaygan.

Toshkent shahridan hududlarga doimiy yashash uchun ko‘chib ketganlar soni:

— Toshkent viloyati – 3611 kishi
— Qashqadaryo viloyati – 194 kishi…
— Namangan viloyati – 46 kishi

O‘zbekistonliklarning MDH davlatlariga migratsiyasi o‘tgan asrning 90-yillarida boshlangan bo‘lsada, uning eng yuqori cho‘qqisi yuqorida ta’kidlaganimizdek, 2000-yillarda avj oldi. Ayni shu vaqtga kelib boshqa millat vakillari bilan bir qatorda mahalliy aholi, ya’ni o‘zbeklarning mehnat migratsiyasidagi ishtiroki boshlandi. Avvaliga Qozog‘istonda paxta terimi mavsumi vaqtida yaxshi haq to‘lanar ekan, degan maqsadda Farg‘ona vodiysidagi aholi sentyabr va oktyabr oylarida qo‘shni Qozog‘iston Respublikasining paxta etishtiradigan tumanlariga ba’zan alohida, ba’zan oilaviy, asosan yuqori sinflarda o‘quvchi farzandlari (asosan qizlar va ayollar) bilan yollanib ishga keta boshladilar. Tabiiyki, bunday sharoitda vositachilik, ya’ni odam savdosi bilan shug‘ullanuvchilar guruhlar ham yuzaga kela boshladi.

Sobiq ittifoqning parchalanishi sababli vujudga kelgan migrantlar (“vatanga qaytish”) bugun ikkinchi darajaga o‘tib bormoqda. Yangi iqtisodiy migrantlarning ham ijtimoiy tarkibi o‘zgacha bo‘lib bormoqda. Agar, avval bu tatarlar yoki ruslar bo‘lgan bo‘lsa, bugun bu yangi mustaqil davlatlarning maqomga ega bo‘lgan irq vakillari: qozoqlar, o‘zbeklar, tojiklar va boshqalar bo‘lib bormoqda. Rossiya Federatsiyasiga O‘rta Osiyo respublikalaridan mehnat migrantlari sifatida, o‘z oilasidan uzilgan holda yoki oilaviy kelgan migrantlar bugungi kunda alohida yashash manzillari bunyod qilishib, birga istiqomat qilishmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bugungi Rossiya Federatsiyasi hukumat doirasida ushbu masalaning keng avj olib muammoga aylanishi, ya’ni etnik ahamiyat kasb etishining oldini olish maqsadida qonun doirasida choralar ko‘rishga harakat qilmoqda. Shu borada so‘z yuritgan mamlakat prezidenti Vladimir Putin “Maktablarimizdagi migrantlar farzandlari soni shunday bo‘lishi kerakki, bu ularni rus tili muhitiga rasman emas, amalda moslashtirish imkonini berishi lozim”, — deb ta’kidlashi bilan ushbu masala kelajakda rus millati uchun xavotirli bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatib turibdi.

Bozor islohotlari, turmush darajasining tushib ketishi, kambag‘allik va ishsizlik, sharq xalqlarining ijtimoiy bandlik sohasiga qamrab olinishining sovet hukumati siyosatidan kam bo‘lmagan “samaraga ega bo‘lgan erkinlik manbasi” sifatida namoyon bo‘ldi. Bugungi kunda O‘rta Osiyoliklar oilalari bilan birga yoki ayrim hollarda o‘zlari yolg‘iz holda ham Rossiyaning turli hududlariga pul topish maqsadida safarga chiqmoqdalar.

Migrantlar uylariga jo‘natayotgan pullar butun bir oilani qashshoqlikdan qutqargan holda boqish va ta’minlash imkonini bermoqda. Bugungi kunda Rossiyadan O‘zbekistonga migrantlar tomonidan yuborilayotgan pullar miqdori bo‘yicha MDH davlatlari ichida eng ko‘p bo‘lib turibdi. “2021 yilning 12 oyi davomida xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari orqali tushumlar hajmi 8,1 milliard dollarni tashkil etgan, bu 2020 va 2019 yillarga nisbatan 34 foizga ko‘pdir”. Moliyaviy o‘tkazmalar bilan bir qatorda migrantlarning ijtimoiy o‘tkazmalari (g‘oyalari, ko‘nikmalari, munosabatlari, bilimlari va h.k.), ijtimoiy kapital (sarmoya) orttirish ham sodir bo‘lmoqda. Ular o‘zlarining tajriba va manbalarni almashinish bilan shug‘ullanuvchi shaxsiy migrantlar tarmog‘ini yaratishlari hamda yangi migrantlarga yordam ko‘rsatishi va ularni qo‘llab-quvvatlashlari (beg‘araz yordam kabi, pullik to‘lovlar asosida) mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida shu masalada davlat siyosatini yurituvchi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshidagi tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyatini yangi yo‘nalishlar bilan kengaytirib borish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun quyidagi tavsiyalar ahamiyatlidir:

- aholining migrant sifatida chiqib ketayotgan mintaqalari bo‘yicha ish o‘rinlari sonini prognoz qilib borish;

- noqonuniy migratsiyasi va odam savdosining oldini olishning mustahkam tashkiliy huquqiy asoslarini ishlab chiqish;

- odam savdosining qurboni bo‘lgan migrantlarni huquqiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash yoki alohida jamg‘armalar tashkil etib moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, yangi qabul qilingan konstitutsiyamizning “23-moddasida O‘zbekiston dunyoning har bir burchagidagi fuqarolar hamda vatandoshlar haqida qayg‘urishi, ularga madadkor va dalda bo‘lishi, hech kim o‘zini chorasiz va yolg‘iz his qilmasligi, ortida doimo ona xalqi va vatani, O‘zbekistoni turganini his qilishi kerakligi haqida so‘z boradi”.

Migratsiya mamlakat taraqqiyoti va ijtimoiy o‘zgarishlarining omillaridan biri bo‘libgina qolmay, ayni paytda doimiy nazoratni talab qiladigan ko‘plab muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkinligi ham bor gap. Bugun biz bu borada siyosatni o‘zgartishimiz kerakligini anglagan holda, arzon ishchi kuchi eksportini emas, intellekt eksportini kengaytirishimiz kerakligini va buning amaliy ifodasi sifatida birinchi navbatda ta’lim tizimiga yuksak e’tibor va majoziy ma’noda ko‘tarilish kerakligini davlat siyosatida aks ettirmog‘imiz zarur.

Demak, migratsiyaga nisbatan jarayon sifatida qaralishi va bu hodisa to‘xtab qolishi mumkin emasligi, bugungi davlatlar va jamiyatlarning yashovchanligi sharti ekanligini ham ko‘rib o‘tdik. Shuningdek, bu jarayonga pozitiv qarashni shakllantirish, fuqarolarda ham bu boradagi qarashni to‘g‘ri tarbiyalash ham ayni asosiy masala ekanligini hisobga olgan, jamiyatning taraqqiyotiga olib keluvchi sohalariga ta’sirini ham ko‘rish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarjonovich M. A. MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI //IQRO. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 628-631.

2. Akbarjonovich M. A. MIGRATSIYANI KELTIRIB CHIQARUVCHI SABABLAR //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 32-34.

3. Akbarjonovich, M. A. (2023). Historical Analysis of Population Migration. International Journal on Orange Technologies, 5(4), 68-70. Retrieved from https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/4292